



Aziza **ERKINOVA**,
Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi
E-mail: azizaerkinova22@gmail.com

QarDTU dotsenti, PhD X.Nurullayev taqrizi asosida

JEYN OSTIN IJODINING BADIY XUSUSIYATLARI VA “ANDISHA VA G‘URUR” ROMANINING G‘OYAVIY-ESTETIK MAZMUNI

Аннотация

Ushbu maqolada ingliz adabiyotining mashhur namoyandalardan biri bo‘lgan Jejn Ostin va uning eng taniqli asarlaridan biri — “Andisha va g‘urur” romanining mazmuni hamda badiiy xususiyatlari haqida qisqacha tushuncha berilgan. Asarda tasvirlangan ijtimoiy hayot, o‘z davrining turmush tarzi, ayol va erkak o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, obrazlar tizimi orqali yozuvchining jamiyatga bo‘lgan munosabati yoritiladi. Maqolada romanning asosiy syujeti, bosh qahramonlarning xarakteri va ularning g‘oya ifodasidagi o‘rni haqida umumiy tahlil berilgan. Jejn Ostinning nozik kuzatuvchanligi, ijtimoiy tanqidchan yondashuvi va o‘ziga xos yozuvchilik uslubi bu asarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Jane Austen, andisha, g‘urur, klassik realizm, romantizm, ingliz adabiyoti, obrazlar tizimi, bal, adabiy-badiiy motivlar.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТВОРЧЕСТВА ДЖЕЙНА ОСТИНА И ИДЕЙНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ РОМАНА «ГОРДОСТЬ И ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ»

Аннотация

В данной статье представлен краткий обзор одной из наиболее выдающихся фигур английской литературы — Джейн Остин, а также одного из её самых известных произведений — романа «Гордость и предубеждение». Рассматривается изображённая в романе социальная жизнь, образ жизни того времени, взаимоотношения мужчин и женщин, а также отношение автора к обществу, отражённое через систему персонажей. Статья предлагает общий анализ основного сюжета, характеров главных героев и их роли в передаче главных идей романа. В работе ясно проявляется тонкое наблюдение Джейн Остин, её критическое отношение к обществу и характерный стиль письма.

Ключевые слова: Джейн Остин, гордость, предубеждение, классический реализм, романтизм, английская литература, система образов, бал, литературно-художественные мотивы.

ARTISTIC FEATURES OF JANE AUSTEN’S WORK AND THE IDEOLOGICAL AND AESTHETIC CONTENT OF THE NOVEL “PRIDE AND PREJUDICE”

Annotation

This article provides a brief overview of one of the most prominent figures in English literature, Jane Austen, and one of her most famous works — the novel *Pride and Prejudice*. It explores the social life depicted in the novel, the lifestyle of the period, the relationships between men and women, as well as the author’s attitude toward society as reflected through the system of characters. The article offers a general analysis of the main plot, the protagonists’ character traits, and their role in conveying the novel’s main ideas. Jane Austen’s keen sense of observation, critical approach to society, and distinctive writing style are clearly evident in this work.

Key words: Jane Austen, pride, prejudice, classical realism, romanticism, English literature, system of characters, formal dance, literary and artistic motifs.

Kirish. Jejn Ostin (1775-1817) ingliz adabiyotida ko‘p tilga olinadigan mashhur adiblardan biri. Uning asarlari ikki asr oldin yaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kunda ham dunyo kitobxonlari nazaridan tushgani yo‘q. Buning asosiy sabablari: yozuvchi asarlari syujetining tuzilishining tushunarligi, badiiy tilining ravonligi, samimiyligi, qiziqarliligi hamda jahondagi boshqa tillarga tarjima qilishning qulayligidadir.

Ma‘lumki, Jejn Ostin yashagan va ijod etgan zamonda ingliz adabiyotida ikki xil yo‘nalish mavjud edi. Ya‘ni "klassik realizm" va "romantizm".

Bu adabiy yo‘nalishlardan birinchisi ijtimoiy va oilaviy masalalarni, insonlarning haqiqiy hissiyoti va xulq atvorini tasvirlashga qaratilganligi bois, biz tadqiq qilayotgan yozuvchimiz ham romanlarida o‘zi istiqomat qilayotgan jamiyatning kundalik hayotini, unda yashayotgan fuqarolar

tavsifini jonli buyoqlar orqali ifodalashga harakat qilgan va klassik realizmga asosiy e‘tiborini qaratgan.

Shu bilan bir qatorda adib adabiyotning ikkinchi yo‘nalishidan ham ustalik bilan foydalangan. “Romantizm”dagi inson tabiatining to‘liq erkinligi va bu borada tabiatdan ajralib turishi, qalbdagi mustaqil huquqlarning, inson vujudidagi his-tuyg‘ular qadrligining balandligi, jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi suhbatlarda ma‘nan yetuk fikrlar muvozanati naqadar zarurligi uning ijod namunalari alohida o‘rin tutadi. Buning natijasi sifatida, Jejn Ostin XVIII-XIX asrlarda ana shu ikki adabiy yo‘nalishni uyg‘unlashtirgan yozuvchi sifatida Angliyada shuhrat qozondi. Uning 1813-yilda nashr qilingan “Andisha va g‘urur” romanida aynan realizm va romantizmning aralashgan ifodasini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Asar nomining o‘zbekchaga “Andisha va g‘urur” deb tarjima qilinishining o‘zi ham mentalitetimizdagi qadriyatlariga

xos jaranglaydi. Misol uchun aytadigan bo'lsak, "ANDISHA" so'zi: 1. oqibatini o'ylab, yuz-xotir qilib yuritiladigan mulohaza, ehtiyotkorlik; 2. Fikr. mulohaza. 3. Sharm-hayo, or-nomus; "Andishali" so'zi: 1. oqibatini, ketini o'ylab ish qiladigan, yuz-xotirni biladigan, mulohazali; Or-nomusli, sharm hayoli, iboli ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: andishali qiz, degan ibora bor. "G'URUR" so'zining ma'nosi esa quyidagicha: 1. Insonning o'z qadri-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi, izzat-nafs; 2. Insonning biror narsadan mamnun bo'lib faxrlanish hissi, faxr-iftixor. 3. Faxrlanishga asos bo'ladigan narsa, kimsa; 4. O'zini boshqalardan yuqori qo'yish, kibru nava. [1]

Yuqaridagi so'zlarning asl ma'nolarini chaqib berishimizdan maqsad shuki: 403 sahifalik, uch bo'lim XIX bobdan iborat "Andisha va g'urur" kitobidagi obrazlarning nutqlarida, xatti-harakatlarida, davralarida, o'zaro murojaatlarida va suhbatlarida, ularning o'y-fikrlarida milliylikimizga xos va mos uyg'unlik sifatleri bor. Asar nomi va mazmunining shu tarzda o'zbekchaga aylantirilishi inglizlar bilan o'zbek xalqi o'rtasidagi ma'naviy bog'lanishning mustahkamlanishiga hamda roman ichki tuzilishini tezroq anglab olishimizga xizmat qilayapti, desak mubolag'a bo'lmaydi. Endi ana shu romanning mazmun-mohiyatiga, obrazlari talqiniga oz bo'lsa-da maqolamizda to'xtalib o'tishni o'zimizga joiz, deb bilamiz.

Mavzuga oid dabiyotlar tahlili. Jeyn Ostin ijodining mahsuli bo'lgan "Andisha va g'urur" romani 1813 yilda dunyoga kelgan bo'lib, bosh qahramon Elizabet Bennetning hayot kechinmalarini uning atrofini o'rab turgan aristokratik tuzum voqealarini, tabaqalashgan davr odamlarining ichki hissiyotlarini va ularning o'y-xayollarini hikoya qiladi.

Roman janob Bennet oilasidagi xonadon sohibi va sohibasi o'rtasidagi suhbat bilan boshlanadi. "—Azizim mister Bennet, dedi bir kuni missis Bennet eriga, - Nezerfild park endi axiri bo'sh turmasligini eshitdingizmi? Mister Bennet hech narsadan xabari yo'qligini aytdi. —Lekin shundaymish, - davom etdi ayol. —Bu yangilikni hozirgina missis Long kirib aytdi. Mister Bennet indamadi. — Yangi qo'shnimiz kim ekanligini bilishni xohlaysizmi — sabr bilan yana so'radi xotini. —Agar shuni menga aytmoqchi bo'lsangiz, unda eshitishga tayyorman. —Unda eshiting, azizim, —davom etdi missis Bennet. —Missis Longning aytishicha, Nezerfildni shimoliy angliyalik juda ham boy bir yigit ijaraga olibdi." "—O'sha yigitning ismi nima ekan. —Mister Bingli. —Uylangan ekanmi yoki bo'ydoqmi. —Bo'ydoq. azizim, hamma gap shund-a—bo'ydoq! Yiliga to'rt yoki besh ming daromad topadigan bo'ydoq! Bizning qizlarimiz uchun juda qulay imkoniyat-a!" [2] Kitobning birinchi bobidagi ana shu aristokrat er-xotin o'rtasidagi o'zaro gurgundan keyin pomechikning o'g'li bilan oilaviy munosabatlarni yaqinlashtirish, mister Bingli bilan qizlarni tanishtirish, buning uchun Nezerfildga otaning birinchi borishini tashkil qilish, qizlardan birini shu boy yigitga uzatish maqsadi yuzaga chiqariladi. Rejaning asosini missis Bennet tuzadi. Shunday qilib, asarning ikkinchi bobidan ichki syujet jonlanadi. Janob Bennet mister Binglikiga boradi, yigit ham ma'lum bir muddatdan keyin Bennetlarida mehmon bo'ladi. Uchrashuvlar davom etiriladi.

Ilgari G'arbda yuqori tabaqa vakillari taklif qilingan holda bazmlar uyushtirilgan va erkaklar, ayollar ishtirokida "bal yoki balmaskarad" lar o'tkazilgan. "Bal" so'zi fransuzchadan ruschaga aylangan termin bo'lib, aslida "katta raqs" ma'nosini beradi. [3] Mutarjim tarjima jarayonida "bal" so'zini o'z joyida qoldirishni lozim ko'rgan. Agar, bu termin "katta raqs" sifatida ishlatilganda, ziyarakroq o'quvchini o'ylantirib qo'yishi mumkin edi. Sababi, milliy an'analarda "katta raqs" degan ibora qo'llangan bazmlar yo'q. "Bal"lar o'tmishda yer yuzining Yevropa, Amerika mamlakatlaridagi

puldor xonadonlarda yoki davlat xodimlari tomonidan tanlangan hashamatli maskanlarda o'tkazilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Jeyn Ostinning "Andisha va g'urur" romaniga badiiy hamda tematik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Adabiy-badiiy tahlil – asarning syujeti, obrazlar tizimi, badiiy vositalar va yozuvchilik uslubi o'rganildi.

Kontekstual yondashuv – roman yozilgan tarixiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy muhit hisobga olindi.

Tematik tahlil – g'urur, andisha, ijtimoiy mavqe kabi asosiy mavzular tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. Bir gap bilan aytganda, "Andisha va g'urur" romanidagi obrazlarning navbatdagi uchrashuvi ham navqiron mister Bingli ijara olgan Nezerfild parkidagi binoda uyushtirilgan "bal"da, ya'ni "katta raqs" tadbirida bo'lib o'tadi. "Bal"ga janob Bingli turmushga chiqmagan opasi Kerolayn hamda mister Xyorstga turmushga chiqqan missis Luiza, shuningdek yaqin do'stlari Xyorst va Darsi janoblari bilan kirib keladi. Avval, mehmonlar bilan mezbonlar tanishuvidan keyin davrada bir-birining ichki va tashqi xususiyatlarini ilg'ab olishga qaratilgan suhbatlarga o'rin beriladi. Binglining safdoshi mister Darsining yillik daromadi 10 ming funt sterlingdan ortiqligi haqidagi shivir-shivirlar Bennetlarda unga nisbatan moyillik, havas uyg'otgan bo'lsa, boshqa qizlarga e'tibor bermasdan davradagi opa-singillardan Binglilar bilan raqsga tushgani Longborinliklarda "Darsi dimog'dor, o'ziga bino qo'rgan" degan salbiy xulosani keltirib chiqaradi. Ayniqsa, janob Binglining Darsidan Elizabetga e'tibor qaratishligini so'rganligi, ammo uning do'sti qizga bepisandlarcha nazar tashlaganligi qizning nafsoniyatiga tegadi va unga ancha vaqt ro'yxush bermaydi. Bennetlarning katta qizi Jeyn bilan Bingli qalbida esa iliqlik paydo bo'ladi. Bir necha kun o'tib, Kerolayn va Luiza Jeyn Bennetni birga ovqatlanish uchun yana Nezerfildga taklif qiladi. Onasi missis Bennet yomg'ir yog'ayotgan bo'lsa-da, xursandligidan uni otga mindirib, Binglilarnikiga jo'natadi. Qiz nam havoda shamollab, yigitning manzilida qolib ketadi. Elizabet kasal opasini ko'rish uchun piyoda loy kechib, Binglilarnikiga yetib boradi va bemorga qarash uchun shu xonadonda bir necha kun qolib ketadi. Bingli ham u bilan bir qatorda uning opasiga samimiy g'amxo'rlik qiladi. Chunki, u Jeynni sevib qolgandi. Elizabet Nezerfildidagi davrida Kerolaynning janob Darsiga befarq emasligiga, Luiza singlisi bilan ovqat yeyish va karta o'ynashdan boshqa ish qo'lidan kelmasligiga aqli yetadi. Bundan tashqari, opa-singil Bennetlar sayr davomida Uikkhem degan yigitdan Darsi otasining oxirgi vasiyatini bajarmaganligini, ruhoniylik maqomini unga bermaganligini eshitadi. Darsi o'z navbatida Elizabetning Uikkhem bilan do'stlashishini xohlamaydi. Sababi, unga Liza yoqa boshlagandi. Asar syujeti voqealari shu tarzda rivojlanib bormoqda va Sharlotta, Ketrin de Bo'r xonim, polkovnik Fitzvilyam, Elizabetning kenja singlisi Lidya, misses Filips, mister Gardiner obrazlari paydo bo'la boshlaydi. Romandagi opa-singil Bennetlarning sarguzashtlari atrofida boshqa qahramonlarning ham psixologiyasi birin-ketin ochiladi. Bal va suhbatlarda mister Bennet, miss Bennet va uning kenja qizlari Jorjina, Lidalarida odob-axloq qoidalari yetishmasligi ayon bo'ladi. Har gal Elizabet onasi va singillarining gaplariga chiroyli "to'n" kiydirishga harakat qilsa-da, kiborlar jamiyatiga mansub Binglining singillari, Binglining xolasi Ketrin de Bõr xonim, janob Fitzvilyamlar bu xonadonning qizi Jeynni Bingliga nomunosib, deb hisoblaydilar. Elizabet bilan tanishgan harbiy zobit Fitzvilyam "Darsi do'stini tengi bo'lmagan bir qiz bilan nikohdan qutqarmoqda", deydi. Zobitning bu gapi Elizabetning yuragiga og'ir botadi, Darsidan qattiq o'grinadi. Kibor Darsi bir kuni to'satdan uning oldiga

kelib, sevishini aytadi va Elizabetning roziligini so'raydi. Qizning g'ururi yigitning taklifidan baland keladi, u badavlat yigitga rad javobini beradi. Janob Darsini kuzatgan va bir necha bor uning suhbatida bo'lgan qizda keyinchalik bu ishidan afsuslanish tuyg'ulari seziladi, ammo sevib qolganligini bildirmaslikka tirishadi. Bingli esa Jeynga turmush qurishni taklif qiladi va bu haqiqatga aylanadi. Bundin Bennetlar xonadoni mamnun. Darsi bilan Elizabet o'rtasidagi munosabatlarda ilgari andisha ustunlik qilgan bo'lsa, dillardagi yaqinlik tufayli endilikda qizning g'ururi sevgilisining his tuyg'ulari oldida taslim bo'la boradi. Ikki yoshning muhabbatidan darak topgan Darsining xolasi Ketrin de Bo'r xonim Bennetlar yashaydigan Longborn qishlog'iga to'rt ot qo'shilgan karetda kirib keladi va Elizabetni Darsiga turmushga chiqmaslikka ko'ndirishga harakat qilgan ekan, qizi bilan Darsi unashtirilganligini, jiyani past tabaqadan o'ylanishi mumkin emasligini pisanda qiladi. Ana shu epizod orqali yozuvchi Elizabetning insoniylik andishasiga nuqta qo'yib, undagi jasoratni yuzaga chiqaradi. Kamsitilgan qizning g'ururi Darsining o'ziga bo'lgan muhabbatini ochiq aytishga hamda yigitning undan qo'lini so'raganligini bildirishga majbur qiladi."—Hozir na burch, na nomus, na minnatdorchiлик menga

biror narsada majburiyat yuklamaydi. Mening mister Darsi bilan turmush qurishim hech qanday odob-axloq qoidalarini buzmasdi. Uning qarindoshlarining bunga qanday qarashi, butun olamning nafrati menga juda ham tegmagan bo'lar edi,"—deya qat'iy javob beradi.

Ammo, janob Darsi xolasining noroziligi fikrlarini inobatga olmaydi. U yana Longbornga kelib, Elizabetning qo'lini so'raydi. Liza otasining roziligi bilan baxtli oila quradi.

Xulosa. Xulosa tarzida shuni aytishimiz mumkinki, asarning asosiy mavzusi dvoryan mister Bennetning ikkinchi qizi Elizabet hamda jamiyatning oliy tabaqasiga mansub janob Darsi xarakterida mavjud bo'lgan andisha va g'urning sof muhabbatni shakllantirishdagi o'rmi, shuningdek o'sha davr ayollarining o'zlari mansub bo'lgan ijtimoiy hayotda haq-huquqlari uchun kurashishlari zarurligini, juft tanlashda ayollarga ham tanlash huquqini berish lozimligini badiiy obrazlarning xatti-harakatlari va nutqlarda ifodalab bergan. Asar 18-asr oxiri va 19-asr boshidagi ingliz adabiyotidagi adabiy-badiiy motivlarning xususiyatlarini, sinfiyligini, ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini, obrazlar talqinini, badiiy metodlarning o'rnini tadqiq qilish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom. Moskva. "Rus tili" nashriyoti. 666-bet. 1981-yil.
2. Jeyn Ostin. "Andisha va g'urur" asari. M.Ismoilova tarjimai. "Yangi asr avlodi". 2014 yil.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom. Moskva "Rus tili" nashriyoti. 74-bet. 1981-yil.